

## “O‘ZAGROSUG‘URTA” AJ FAOLIYATINING 2022–2024 YILLARDA QISHLOQ XO‘JALIGI SUG‘URTASI RIVOJIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

**Aliqulov Dilshodbek**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20018899>

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada “O‘zagrosug‘urta” aksiyadorlik jamiyatining 2022–2024 yillardagi qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi sohasidagi faoliyati tahlil qilinadi. Tahlil davomida sug‘urta mukofotlari, to‘lovlar hajmi, shartnomalar soni hamda kompaniyaning iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kompaniya sohada yetakchi mavqeni saqlab qolgan bo‘lsa-da, ayrim yillarda sug‘urta faoliyatida qisqarish kuzatilgan. Maqolada bu holatlarning sabablari, ularni bartaraf etish yo‘llari va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari ilmiy asosda tahlil etilgan.

### **Kalit so‘zlar:**

*Agrosug‘urta, hosil sug‘urtasi, imtiyozli kredit, risklarni boshqarish, sug‘urta mukofoti, javobgarlik, O‘zagrosug‘urta AJ.*

### **Kirish**

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘i milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. So‘nggi yillarda ushbu sohada ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy xavfsizligini ta‘minlash, tabiiy va iqtisodiy risklardan himoya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, sug‘urta tizimi, xususan agrosug‘urta mexanizmi, ishlab chiqaruvchilarning barqaror faoliyatini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Sug‘urta tizimi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun himoya kafolatini yaratadi. Tabiiy ofatlar, iqlim o‘zgarishlari, kasalliklar va boshqa kutilmagan holatlar natijasida yuzaga keladigan zararlarni kamaytirishda “O‘zagrosug‘urta” AJning o‘rni beqiyosdir. Mazkur kompaniya qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining hosili, chorvasi, asbob-uskunalari hamda kredit majburiyatlarini sug‘urtalash orqali moliyaviy xavflarni qoplashda asosiy ishtirokchiga aylangan.

### **Asosiy qism**

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “O‘zagrosug‘urta” AJ 2022–2024 yillarda qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi yo‘nalishida bir qator o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. 2022-yilda 9 385 ta sug‘urta shartnomasi tuzilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 7 320 taga, 2024-yilda esa atigi 38 taga kamaygan. Shu bilan birga, sug‘urta mukofotlari 2022-yilda 32,8 mlrd so‘mni, 2023-yilda 42,4 mlrd so‘mni, 2024-yilda esa 80 mln so‘mni tashkil etgan. Sug‘urta javobgarligi hajmi ham 2022-yilda 1,02 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 2,0 trln so‘mga yetgan, biroq 2024-yilda 4,2 mlrd so‘mgacha qisqargan. Bunday keskin pasayishlar qishloq xo‘jaligi sohasida sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabning kamayganini, ishlab chiqaruvchilar orasida sug‘urta madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, tahlil natijalariga ko‘ra, eng katta ulush imtiyozli kreditlar sug‘urtasiga to‘g‘ri keladi. 2023-yilda ushbu yo‘nalish bo‘yicha 4 738 ta shartnoma tuzilgan, jami 37,2 mlrd so‘m sug‘urta mukofoti to‘plangan. Hosil sug‘urtasi yo‘nalishida 2023-yilda 698 ta shartnoma va 2,6 mlrd so‘m mukofot qayd etilgan. Chorvachilik va lizing sug‘urtasi turlarida esa ko‘rsatkichlar barqaror bo‘lmagan. Biroq “O‘zagrosug‘urta” AJ so‘nggi yillarda raqamli sug‘urta platformalarini yo‘lga qo‘yish, elektron arizalar tizimini joriy etish hamda qayta sug‘urtalash mexanizmlarini kengaytirish orqali xizmat sifatini oshirishda muhim natijalarga erishdi.

Ayniqsa, 2024-yilda kompaniya tomonidan 64 ta sug'urta mahsulotini onlayn rejimga o'tkazilishi sohaga innovatsion yondashuv sifatida baholanishi mumkin.

Shu bilan birga, kompaniya faoliyatida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, qishloq xo'jaligi subyektlari tomonidan sug'urtaga bo'lgan ishonch pastligi, risklarni aniqlashdagi ma'lumotlar bazasining to'liq shakllanmagani va tahliliy baholashning sustligi soha rivojiga to'sqinlik qilmoqda.

### **Xulosa**

“O'zagrosug'urta” AJ faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, kompaniya mamlakat sug'urta bozorida yetakchi mavqeini saqlab kelmoqda. 2022–2023 yillarda sug'urta mukofotlari va javobgarlik hajmi o'sish tendensiyasini ko'rsatgan bo'lsa-da, 2024-yilda pasayish kuzatildi. Bu bozor sharoitlari, davlat qo'llab-quvvatlov siyosatidagi o'zgarishlar hamda sug'urta talabining qisqarishi bilan bog'liq. Kompaniya tomonidan amalga oshirilayotgan raqamlashtirish, qayta sug'urtalash, onlayn xizmatlar va yangi mahsulotlarni joriy etish kabi tashabbuslar esa sohaga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Kelgusida “O'zagrosug'urta” AJ faoliyatini yanada samarali tashkil etish uchun quyidagi yo'nalishlarda ishlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq:

1. Qishloq xo'jaligi sug'urtasini subsidiya mexanizmlari orqali yanada qo'llab-quvvatlash;
2. Iqlim o'zgarishlariga moslashgan sug'urta mahsulotlarini joriy etish;
3. Sug'urta risklarini baholash tizimlarini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish;
4. Fermer xo'jaliklari orasida sug'urta madaniyatini oshirish uchun axborot-targ'ibot ishlarini kuchaytirish.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, “O'zagrosug'urta” AJ mamlakatimizda qishloq xo'jaligini moliyaviy himoya qilishning asosiy tayanchi sifatida faoliyat yuritmoqda. Sug'urta tizimining barqaror ishlashi, ishlab chiqaruvchilar manfaatini himoya qilish hamda risklarni kamaytirish orqali u milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shmoqda.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. “O'zagrosug'urta” AJ yillik hisobotlari (2022–2024).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4972-sonli qarori, 2021-yil 2-fevral.
3. Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi ma'lumotlari, 2024-yil.
4. [www.agrosugurta.uz](http://www.agrosugurta.uz) – “O'zagrosug'urta” AJ rasmiy sayti.
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari, 2023–2024-yillar.